

Dunyoviylik dahriylikmi?

“Gidromelioratsiya” fakultetining “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasida professor-o‘qituvchilari Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, “Oqqo‘rg‘on” MFY ning faollari bilan joriy yilning 24 dekabr kuni “Dunyoviylik - dahriylik emas” mavzusida davra suhbatini tashkil etdi.

Davra suhbatini mahalla raisi Mahmud Abdullayev ochib, ishtirokchilarni o‘tkazilayotgan ma’naviy - ma’rifiy uchrashuv “Oqqo‘rg‘on” mahallasidagi ijtimoiy - ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirishga qaratilganligini aytib o‘tdi. Davra suhbatini kafedra dotsenti Qudratillo Raximov davom ettirib ilmlar diniy va dunyoviy ilmlarga ajratiladi, diniy bilimlar deganda qur‘on, hadis va boshqa diniy manbaalarda keltirilgan ma’lumotlarni, dunyoviy ilm deganda esa maktab, kollej, institut va boshqa ta’lim muassasalarida o‘tiladigan fanlar nazarda tutiladi, aslida bu ikki ilmnining birgalikda olingani to‘g‘ridir.

Biz dunyoviy bilim deb aytayotgan bilimlar, aslida insonning iymonini quvvatlab, e’tiqodini mustahkam qilishi haqida gapirdi. O‘z fikrlarini bir qancha olim va mutafakkirlarimiz, hususan, hozirgi bizning davrimizda yashab ijod qilgan mashhur olimlardan shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf xazratlarining va professor Latipov Qudrat Sharipovichlarning ibratli hayot yo‘llaridan va yozib qoldirgan asarlaridan misollar keltirdi. Davra suhbatini yig‘ilganlar o‘rtasida qizg‘in va munozarali bo‘lib o‘tdi. Bunday suhbatlarni ko‘proq o‘tkazish mahalla faollari tomonidan ta’kidlandi.



Kafedra assistenti. D. Allayorov axboroti
Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov